O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA MAXSUS KASB- HUNAR TA'LIM
MARKAZI

MUZAFFAR NAIMOV

# QALB NAVOLARI

*(Qo'shiqlar to'plami)*

TOSHKENT – 2003

Muharrir: Rustambek Abdullaev, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, san'atshunoslik fanlari doktori, professor

Taqrizchilar: Xabibulla Rahimov, O'zbekiston bastakorlar uyushmasi rais o'rinbosari, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, professor.

Xamidulla Nurmatov, pedagogika fanlari doktori, professor.

Notanavis: Xurram Yusupov.

© Nizomiy nomidagi TDPU



Muzaffar Naimov 1962 yil Denov shahrida ishchi oilasida tavallud topgan.

Maktabda o'qish jarayonida T.Jalilov nomli musiqa maktabiga ham qatnadi. Bu uning musiqaga qiziqtirdi va Termiz musiqa bilim yurtiga o'qishga kirib uni bitirdi.

1986 yilda M;Ashrafiy nomli Toshkent Davlat konservatoriyasining xor dirijyorligi kulliyotini bitirdi. Maktablarda, Denov rayon va shahar musiqa maktablarida ishladi. 1996-98 yillarda T.Jalilov nomli san'at maktabida direktor bo'lib ishladi.1999 yildan Denov pedagogika kollejida o'qituvchi bo'lib ishlab kelmogda. Qo'shiq, kuy bastalashga qiziqadi va ko'p vaqtlardan buyon shu sohada ijod qiladi, ayniqsa xalq qo'shiq, kuylarini notaga tushirishni mashq qiladi. U xalq qo'shiqlarini to'plab notaga tushirib 1997 yilda ''Surxon qo'shiqlari'' kitobini I-qismini, 2000 yilda ''Surxon qo'shiqlari'' kitobini II-qismini nashrdan chiqardi. U 1997 yilda N.Begimqulovaning ''O'zbegim'' she'riga kuy bastalab ''Ma'rifat'' ro'znomasining III-darajali mukofotiga sazovor bo'ldi.

U 2000 yilda ''O'zbekiston xalg ta'limi a'lochisi'' ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

U tayorlagan xor jamoalar bir necha bor Respublika ko'rik tanlovlarida ishtirok etib faxrli o'rinlarga sazovor bo'lgan.

2002 yildan buyon ''O'zbekistonning Janubiy marosim qo'shiqlari'' mavzusida ilmiy ish bilan shug'ullanmoqda.

2003 yilda ''O'zbek xalq musiqa ijodiyoti'' va ''O'zbek musiqa adabiyoti'' fanlari bo'yicha akademik lits'ey va kollejlar uchun test savollaridan tuzilgan qo'llanmasi nashrdan chiqdi.

Qo'lingizdagi kitob uning o'zi yaratgan qo'shiqlar to'plami bo'lib san'atsevarlar hukmiga havola etilmoqda.

# SO'Z BOSHI

San'at olami shunday o'lkan beqiyos va sirli olamki, yuragi jo'sh urib turgan har bir inson undan bahra olish, quvonish istagida albatta, bo'ladi. Ayniqsa qo'shiq, kuy tinglaganda inson ruhiy va ma'naviy ozuqa olishini qadimdan bobokalonlarimiz bi: necha bor ta'kidlab o'tishgan.

Shunday ekan birov dildan qo'shiq kuylaydi, birov cholg'uda maromiga etkazib kuylar ijro etadi, kimlardir shunday kuy va qo'shiqlarni yaratadi, tinglovchilar esa yaratilgan kuy va qo'shiqlarni tinglab ma'naviy ozuqa olishadi.

Men oddiy ijodkor o'qituvchi sifatida baholi qudrat mahalliy shoirlarimizdan tortib, Respublikamizda taniqli shoirlarimiz she'rlariga kuy bastalab qo'shiqlar yaratishga harakat qildim.

Ushbu to'plamni "Qalb navolari" deb atadim. To'plam mening bir necha yillik ijodiy mehnatim mahsulidir. To'plamdan o'rin olgan qo'shiqlarim qo'shiqsevar muxlislar qalbidan joy olsa demakki baxtiyor ijotkorman.

Niyatim, Ollohning in'omi bo'lgan kuy va qo'shiq tinglash istagi hech birimizni zinhor tark etmasin.

# O'ZBEGIM

Nargiza Begimqulova she'ri.



Armon bilan o'tgan bobolar haqi,
Yoridan tul qolgan momolar hadi.
Ota mehriga zor farzandlar haqi,
Erkni qumsab o'tgan avlodlar haqi,
Istiqloling asra, asra O'zbegim!

Bugun mustaqilsan ozod hur elim,
Qalbi quyosh mehri daryo dur elim.
Jannat makon yurtda davron sur elim,
Istiqbol izlagan insonlar haqi,
Istiqloling asra, asra O'zbegim!

Bugun o'z elingda iymoning butdir,
Bugun o'z tilingda so'zlar yoqutdir.
Bugun o'z uyingda g'amlar unitdir,
Kelajagi buyuk avlodlar haqi,
Istiqloling asra, asra O'zbegim!

# GO'ZAL TURONIM

Sh. Hodiyeva she'ri

Val's tezlikda.




Bo - bom Te - mur sha'- ni, tug' if -
ti - xor - san, av - lod
lar fax - ri - san go'- zal Tu - ro -
nim. Ha - mi - sha g'o - lib bo'l,
bo'l - gin Mu - za - ffar,
av - lod - lar fax - ri bo'l,
qalb - lar - da ba - hor.
Ja - hon um - mo - ni - da
bo'l - gin bax - ti - yor,
O'z - be - gim sho - ni bo'l,
go'- zal Tu - ro - nim.

# GO'ZAL TURONIM

Shaxnoza Xodiyeva sh'eri.

Jahon havas qilgan quchog'ing aro,
Bo'y cho'zgan Samarqand, shahri Buhoro.
Chiroying olamda tengsizdir a'lo,
Ko'rkam Ona yurtim, go'zal Turonim.

Tumaris, Shiroqlar sevgan o'lkasan,
Termiziy, Yassaviy o'sgan diyorsan,
Bobom Temur sha'ni tug' iftixorsan,
Avlodlar fahrisan, go'zal Turonim.

Hamisha g'olib bo'l, bo'lgin Muzaffar,
Avlodlar faxri bo'l, qalblarda bahor.
Jahon ummonida bo'lgin baxtiyor,
O'zbegim shoni bo'l, go'zal Turonim.

Istagim chiqsa gar ro'yobga mening,
Qalbimga muhrlab aziz nomingni.
Oqlasam mehnatda tuzu noningni,
Farzandim atadin aziz Turonim.

# O'ZBEKISTONIM

Tantanavor tempda

Maqsuda Ergasheva she'ri.



## "O' Z B E K I S T O N I M"

Maqsuda Ergashova she'ri

Osmonlari nur bo'lgan diyor,
Oy qizlari hur bo'lgan diyor.
Tuprog'i zar har toshi olmos,
Yigitlari zo'r bo'lgan diyor.
Sensan mening jonu –jahonim,
O'zdekiston, O'zbekistonim.

Olis q'ishloqlarning bag'ridan,
Jahongirlar chiqqan Temurdek.
Bir shoxingni agar kessalar,
Unib chiqar ming bitta kurtak.
Sharqdan chiqqan Sohibqironim.
O'zbekiston, O'zbekistonim

Gasd qilganlar past ham bo'ldi-ku,
Dushmanlaring do'st ham bo'ldi-ku.
Boshga xumo qushi qo'ngani
Ro'yo emas rost ham bo'ldi-ku.
Ey haqtalab mangu oshyonim
O'zbekistonim , O'zbekistonim.

# VATANIM

Mardonavor tempda.

Nargiza Begimqulova she'ri.



# VATANIM

Nargiza Begimqulova she'ri.

Ajdodlarga munosib voris bo'lolsam.
Xalqim senga xolis xizmat qilolsam,
Yurtim ravnaqinga xissa qo'sholsam.
Madhinga she'r bitib, toshib jo'sholsam,
Meni chin farzand deb bil, Ona vatanim.

Boyligim bilim deya, jahon kezolsam,
Keraksiz so'zlardan umid uzolsam.
Xayot kemasida mag'rur suzolsam.
O'zbekligim dunyoga ko'z-ko'z qilolsam,
Meni chin farzand deb bil, Ona vatanim.

Ozod hur, Mustaqil diyor.
Alpomishing bag'ringda bisyor.
Hurliging muborak tillarda alyor
Ko'z tegmasin ajdodlar ruhi bo'lsin yor,
Meni chin farzand deb bil, Ona vatanim.

# YASHASIN YURTIM O'ZBEKISTONIM

Marsh tempida

A. Nuriddinova she'ri






Vatan tuyg'usi har narsadan ulug',
Ona O'zbekistonim – bo'lg'usi Buyuk !
Yaratguvchidan yagona tilak-
Bo'lgin sen omon,aziz Vatanim!
Yashagin yurtim,O'zbekistonim,
Yashnagin yurtim,ona-diyorim!

Xalqinga yo'l boshdir munosib o'g'lon,
Bag'ringda eling yashar farovon.
Ko'rmagil zavol ezgu tilagim,
Dunyo turguncha turgil,Vatanim.
Yashagin yurtim,O'zbekistonim,
Yashnagin yurtim,ona-diuorim!

Butun dunyoga dovrug'ing yoymoq,
Dushmanlaringni dog'da qoldirmoq.
Ozod el o'g'liman,deya jar solmoq
Istagim manim,ona-Vatanim.
Yashagin yurtim,O'bekistonim,
Yashnagin yurtim,ona-diyorim!

# POLVONLARI O'ZBEKNING

Mardonavor

A. Ochilov she'ri



# Polvonlari o'zbekning

Abdug'affor Ochilov she'ri

Bir el borki dunyoda ko'z-ko'z bo'lgan sultoni,
Elni elga tanitgan baxshi, shoir polvoni.
G'ayrat kamarin bog'lab lol qoldirib dunyoni,
Halol kurashib yurar polvonlari o'zbekning.

Bu dunyoning shundayin polvon sifat eli bor,
Har bitta pahlavonin urab solar chili bor.
Alpomishdek baquvvat bilagi bor, beli bor,
Yurtga shon olib kelar polvonlari o'zbekning.

G'irromlikni bilmagan,qolmagan hech „dak-ki"deb,
„Chala", „harom" kurashni o'ziga ko'rmagan eb,
Kunmagan bokovullar aytmaguncha „halol" deb,
Mardu maydon kurashgan polvonlari o'zbekning.

# XUMO QUSHIM

O'rtacha

Z. Eshjonova she'ri






Xumo qushim jon qushim,
Qanotingni qoqib kel.
Uzoqlardan men tomon
Baxtim bo'lib oqib kel.

Nagorat:
Xumo qushim jon qushim,
Xumo qushim jon qushim.

Zamin bo'ylab quloch yoz,
Turon qizi kuylagay.
Turkistonning madxini
Keng jahonga so'zlagay.

Naqorat:
Xumo qushim jon qushim,
Xumo qushim jon qushim.

Xumo qushim jon qushim
Qanotingni qoqib kel.
Istiqlol nuri bilan
El yurtimga boqib kel.

Naqorat takrorlanadi:

# TERMIZIM

Abdugaffor Ochilov she'ri.




ja-hon - ga no - mi ket - gan do-no bu-yuk-la-ri
Sho'xroq
bor. O- na - jo- nim Ter - mi - zim,
jo- na - jo - nim Ter - mi - zim. Ik - ki ya - rim
ming yil - lik to'y mu - bo - rak Ter - mi - zim.
ff O'rtacha temp
Na-zo- ka - ting na - mo - yon ja-hon an-do-za-si-
da, Ter-mi-ziy-lar shu - ku - hi
ya-shar o-vo-za-si - da. Ja-nub qu-yo -
shi o'- zing sharq-ning dar-vo-za-si - da,
shon-li iz - la - ring ya-shar tup-ro-ging-da to-shing-
da. O- na - jo-nim Ter - mi - zim,
jo- na - jo - nim Ter - mi - zim. Ik - ki ya-rim
ming yil - lik to'y mu - bo - rak Ter - mi - zim.

Termiz shahrining 2500 yilligiga bag'ishjanadi

# TERMIZIM

Abdug'affor Ochilov she'ri

Termiz ko'hna dunyoning nurga cho'umgan ziyosi,
Ulug'larning olamga yangrayotgan sadosi.
Ikki yarim ming yillik yoshing turar boshingda,
Dunyo salomga kelar, ta'zim bilan qoshingga.

NAQORAT:
Onajonim Termizim, jonajonim Termizim,
Ikki yarim ming yillik to'y muborak Termizim.

Ko'hna qadim ellarning Alpomishday zo'ri bor,
Barchinoydek qizlarning qalbida g'ururi bor.
Ona shaxrim chexrangda allomalar nuri bor ,
Jahonga nomi ketgan dono, buyuklari bor.

NAQORAT:

Onajonim Termizim,jonajonim Termizim,
Ikki yarim ming yillik to'y muborak Termizim.

Nazokating namoyon jahon andozasida,
Termiziylar shukuhi yashar ovozasida.
Janub quyoshi o'zing sharqning darvozasida,
Shonli izlaring yashar, tuprog'ingda toshingda.

NAQORAT:

Onajonim Termizim, jonajonim Termizim,
Ikki yarim ming yillik to'y muborak Termizim.

# DENOVIM

Vals tezlikda. Egam Do'st she'ri.




fas - li ba - ho - ring,
bog - la - ring - da gul - ga to'l - sa
ol - ma, a - no - ring.
Yu - ra - gim - ga il - hom be - rar
har sof na - ho - ring,
E - lim se - vib kuy - la - gan
a - zal De - no - vim!
Bo - bo tog' to - mon - dan
chiq - qan - da qu - yosh,
zar - rin nur - la - ri - ni
so - char e - gib bosh.
Sa - xo - va - ting kuy - lar




Kundan-kunga chiroy ochgan go'zal Denovim,
Elu-yurtga ziyo sochgan mash'al Denovim.
Sha'ningga bir qo'shiq bitdim chin yuragimdan,
Noming bugun tillar aro g'azal Denovim.

Sepin yoyib kelsa agar fasli bahoring,
Bog'laringda gulga to'lsa olma anoring.
Yuragimga ilhom berar har sof nahoring
Elim sevib kuylagan azal Denovim.

Bobotog' tomondan chiqqanda quyosh,
Zarrin nurlarini sochar egib boch.
Sahovating kuylar tinmay keksa yoch,
Nur taratgan o'chmas mach'al Denovim.

B. Sodiqov she'ri

# DADAJONIM

Yengil



# DADAJONIM

Bolta Sodiqov she'ri

Mehribondir o'zlari,
Jon ozig'I so'zlari,
Muncha issiq yuzlari,
Dadajonim yaxshilar,
Dadajonim yaxshilar.
Dalada ishlaydilar,
Dilimiz xushlaydilar,
Polvonga o'xshaudilar,
Dadajonim yaxshilar,
Dadajonim yaxshilar.
Oqshom yo'lga chiqaman,
Dadam qaytsa quchaman,
Sevinchimdan uchaman,
Dadajonim yaxshilar,
Dadajonim yaxshilar.

Shukur Sa'dulla she'ri

# LOLA



# LOLA

Shukur Sa'dulla she'ri

Quyoshga intilishar,
Tog'lardagi lolalar.
Quchoq- quchoq terishar,
Quvnab yayrab bolalar.

Shabada tursa asta,
Salom berar egilib.
Qiz teribdi bir dasta,
Qarab qoldim tikilib.

Bargi yashil va tarang,
Shapaloqday har biri.
Lolaga siz bir qarang,
Gullarning eng dilgiri.

MUNDARIJA


1. So'z boshi. . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . 3

2. "O'zbegim". Nargiza Begimqulova she'ri. . . . . . . . . . . 4

3. "Go'zal Turonim". Shaxnoza Xodiyeva she'ri. . . . . . . . 6

4. "O'zbekistonim". Maqsuda Ergasheva she'ri. . . . . . . . 9

5. "Vatanim". Nargiza Begimqulova she'ri. . . . . . . . . . .11

6. "Yashasin yurtim O'zbekistonim". Arofat Nuridinnova she'ri. . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . .13

7. "Polyonlari o'zbekning" Abdug'affor Ochilov she'ri. . 15

8. "Xumo qushim". Zubayda Eshjonova she'ri . . . . . . 17

9. "Termizim". Abdug'affor Ochilov she'ri. . . . . . . . . . . 19

10. "Denovim". Egam Do'st she'ri. . . . . . . . . . . . . . . . . 22

11. "Dadajonim". Bolta Sodiqov she'ri. . . . . . . . . . . . . . . 25

12. "Lola". Shukur Sa'dulla she'ri. . . . . . . . . . . . . . . . . . . 27

915806603 манз.

146 – буюртма 100 нусха. Ҳажми 1,5 б.т.
2003 йил 3 октябрда босишга рухсат этилди.
Низомий номидаги ТДПУ Ризографида
нашр қилинди.